

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 37 403,9 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 36 308,8 mlrd so‘mni (103,5 %), o‘rmon xo‘jaligi – 795,7 mlrd so‘mni (102,4 %), baliqchilik xo‘jaligi - 299,4 mlrd so‘mni (108,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 10,3 % ni tashkil etdi.



37 403,9

Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd so‘m

01



36 308,8

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



795,7

O‘rmon xo‘jaligi


03




299,4

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da



2022- yilning yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,1 foizni o'rmon xo'jaligiga, 2,1 foizni baliqchilik xo'jaligiga 0,8 foizi to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka tumani (3 655 mlrd so'm) va Jalaquduq (3 529 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (188 mlrd so'm), Andijon shahar (940 mlrd so'm)ni keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,5 %) yuqori o'sish sur'atlari Ulug'nor tumani (106,6 %) va Marhamat (105,8 %) tumanlarida kuzatildi. Andijon shahrida (97 %) hamda Oltinko'l tumani esa (101,1 %) aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 35 811,3 mlrd so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 22 651,8 mlrd so'mni (102,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 13 159,5 mlrd so'mni (105,2 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi, % da



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 60,5 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 33,9 foizi - fermer xo'jaliklariga, 5,6 foizi - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bo'ston tumanida (46 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xonobod shaharda (97,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xo'jaobod tumanida (14,5 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Oltinko'l tumanida (24,2 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Bo'ston tumanida (42,1 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xonobod shahrida (0,1 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 22 651,8 mlrd soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 63,3 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Hududlar boʻyicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, ming t



Sabzavotlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 708,2 ming tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 101,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t



Kartoshka




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 418,2 ming tonna kartoshka (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 103,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 67,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, ming t



Poliz



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 201,6 ming tonna poliz (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 100,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 73,7 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, ming t



Meva va rezavorlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 681,7 ming tonna meva va rezavorlar (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 102,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 65,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, ming t




Uzum



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 81,7 ming tonna uzum (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 100,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 47,7 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, t




Chorvachilik




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 13 159,5 mlrd soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 185,6 ming tonna goʻsht (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 104,9 % ga koʻp), 1 038,0 ming tonna sut (104,1 % ga koʻp), 748,9 mln dona tuxum (101,6 % ga koʻp) va 21 938,8 tonna baliqchilik (108,7 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 185,6 ming tonna go'sht (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 104,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 81,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming t



Sut



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da





- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 038,0 ming tonna sut (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 104,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna






Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 748,9 mln dona tuxum (2021- yilning yanvar-dekabr ga nisbatan 101,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 74,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


Hududlar bo'yicha olingan tuxum hajmi, mln dona



Baliq



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 21 938,8 tonna (2021- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 108,7 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 68,2 foizi fermer xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Hududlar bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni va o'sish sur'ati




2023- yining 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,9 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 6,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 92,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 23,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 75,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 16,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 50,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 33,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 130,6 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 27,2 ming taga (2,5 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 389,5 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 8,9 ming taga (2,3 %) ko‘paydi.


Sigirlar



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.


Hududlar bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 526,5 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 35,4 ming taga (2,4 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 92,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 7 222 taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 123 taga (1,7 %) ko'paydi.

Otlar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 75,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 10 536,7 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 1 105,2 ming taga (11,7 %) ko'paydi.

Parrandalar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 50,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh

